



**"THE CONSTITUTION IS THE FOUNDATION OF A
DEMOCRATIC STATE, SUSTAINABLE DEVELOPMENT,
AND A PROSPEROUS LIFE!"**

Tashpulatov Abdulaziz Kuvandik oglu

University of Exact and Social Sciences

Department of Psychology Psychology major 1st year master's
student

tashpolatovabdulaziz517@gmail.com

+998-93-199-51-19

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17250266>

ARTICLE INFO

Received: 14th September 2025

Accepted: 29th September 2025

Online: 30th September 2025

KEYWORDS

*Constitution, law, duty, state,
New Uzbekistan, development,
political, social, economic,
parliament, law, development
strategy, entrepreneur, people,
modernization, government,
youth.*

ABSTRACT

*In this article "Constitution is a populist state, stable
the basis of development and prosperous life!" Under
the motto, the state and society development, rights
and freedoms of people, especially the wide
opportunities given to us young people and
entrepreneurs, have been covered under the slogan
of the modernized constitution of Uzbekistan.*

**«КОНСТИТУЦИЯ — ОСНОВА ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ГОСУДАРСТВА,
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И БЛАГОПОЛУЧНОЙ ЖИЗНИ!»**

Ташпулатов Абдулазиз Кувандик оглы

Университет точных и социальных наук

Кафедра психологии, специальность «Психология», магистратура 1-го курса

tashpolatovabdulaziz517@gmail.com

+998-93-199-51-19

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17250266>

ARTICLE INFO

Received: 14th September 2025

Accepted: 29th September 2025

Online: 30th September 2025

KEYWORDS

*Конституция, закон,
обязанность, государство,
Новый Узбекистан, развитие,
политическое, социальное,
экономическое, парламент,
закон, стратегия развития,
предприниматель, народ,
модернизация,
правительство, молодежь.*

ABSTRACT

*В статье «Конституция – популистское
государство, стабильное основа развития и
благополучной жизни!» Под лозунгом
модернизированной Конституции Узбекистана
были освещены развитие государства и
общества, права и свободы человека, особенно
широкие возможности, предоставляемые нам,
молодежи и предпринимателям.*



“KONSTITUTSIYA - XALQCHIL DAVLAT, BARQAROR TARAQQIYOT VA FAROVON HAYOT ASOSI!”

Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Psixologiya kafedrası Psixologiya yo'nalishi 1-kurs magistr talabasi

toshpolatovabdulaziz517@gmail.com

+998-93-199-51-19

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17250266>

ARTICLE INFO

Received: 14th September 2025

Accepted: 29th September 2025

Online: 30th September 2025

KEYWORDS

Konstitutsiya, huquq, burch, davlat, Yangi O'zbekiston, taraqqiyot, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, parlament, qonun, taraqqiyot strategiyasi, tadbirkor, xalq, modernizatsiya, hokimiyat, yoshlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada “Konstitutsiya - xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!” shiori ostida O'zbekistonimizning hozirgi kundagi yangilangan konstitutsiyaning davlat va jamiyat ravnaqi, insonlarning huquq va erkinliklari, ayniqsa, biz yoshlarga, tadbirkorlarga berilgan keng imkoniyatlar xususida yoritib o'tilgan.

KIRISH

Konstitutsiya - davlatning asosiy qonuni bo'lib, xalqchil davlat prinsiplariga asoslangan. Uning maqsadi, inson huquqlarini himoya qilish, demokratik tizimni ta'minlash va davlat organlarining faoliyatini belgilashdir. Konstitutsiya, davlat va jamoat tuzumini birlashtiradi va davlatning huquqiy asoslarini aniqlaydi.

Ushbu qonun, mamlakatning taraqqiyot va farovon hayotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakatimizda yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida yangi ijtimoiy-siyosiy muhit shakllanmoqda, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo o'ziga xos mexanizmlari hayotga tatbiq qilinmoqda.

Davlatning fuqarolarga bo'lgan g'amxo'rliqi yanada kuchaymoqda, davlat institutlarining faoliyati samaradorligi oshmoqda, inson huquqlari tubdan kengaymoqda. Bu kabi o'zgartirishlarni davlat hokimiyatini yanada demokratlashtirish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish va bugungi kun talablariga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadigan omil sifatida qaraladi.

Ta'kidlanganidek, ayni paytda yangi tahrirdagi Konstitutsiya barcha darajadagi davlat organlarining, parlamentning, barcha soha hamda tarmoqlar vakillarining oldiga kechiktirib bo'lmaydigan yangi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni qo'yimoqda.

Hozirda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, huquqiy-me'yoriy bazani yangilash va muvofiqlashtirish borasida parlament tomonidan ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, o'tgan davrda quyi palata deputatlari tomonidan Konstitutsiyadan kelib chiqib, qonunchilik tashabbusi huquqi asosida 4 ta qonun loyihasi ishlab chiqilib, parlament muhokamasiga kiritildi hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning hayotga tatbiq etilishi Yangi



O'zbekistonning o'z oldiga qo'ygan ustuvor maqsadlarini amalga oshirishga, jamiyatni yanada taraqqiy ettirishga, fuqarolarning erkinliklari, huquqlari va qonuniy manfaatlarini to'laqonli ta'minlanishiga xizmat qilishi ta'kidlandi. Alohida aytib o'tilganidek, ana shunday yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy makonda mamlakatimizda parlamentning faoliyati ham yangicha asoslarda olib borilmoqda. Mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlardan unumli foydalanilyapti. Shuningdek, xalqchil davlat va kuchli parlament mexanizmlarini takomillashtirishda, mamlakatning barqaror taraqqiyotiga erishishda, qonun ijodkorligi faoliyatining xalqchil va hayotiyligini ta'minlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Konstitutsiya - xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!" degan ta'rif juda to'g'ri va o'ziga xosdir. Konstitutsiya, bir davlatning asosiy qonuni hisoblanadi va xalqchilik prinsiplariga asoslangan. Uning maqsadi, inson huquqlarini himoya qilish, demokratik tizimni ta'minlash va davlat organlarining faoliyatini tartibga solishdir. Konstitutsiya, mamlakatning taraqqiyot va farovon hayotini ta'minlashdagi asosiy qoidalar va prinsiplarni aniqlaydi. Bu, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy sohalarida rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qonunidir.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi. Shu jumladan, yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz. Bu maqsadga erishish uchun esa dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo'lgan mahalla institutining katta imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, pirovard natijada mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'iniga aylantirish vazifasini o'z oldimizga qo'ymoqdamiz. Muxtasar aytganda, mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Mahalla obod bo'lsa, butun mamlakat obod bo'ladi", dedi Prezidentimiz.

So'nggi yillarda yurtimizda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy hayotning turli sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va bu borada erishilayotgan natijalarni mustahkamlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning o'rni va roli barcha insonlar uchun muhim va ahamiyatlidir. Shuningdek, "Konstitutsiya — xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!" degan hayotiy shiorning mohiyati va ahamiyatini, yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida inson huquq va erkinliklari sohasida mutlaqo yangi bosqichga o'tilganligi qayd etildi.

Konstitutsiyamizdagi inson qadr-qimmati va huquqlari, aholi ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishining yanada mustahkamlanishi, ta'lim sohasi yuksalishi, ayollar, yoshlar, mahallalarning jamiyatimizdagi rolini oshirishga xizmat qiluvchi o'zgartirish va qo'shimchalar, yangi Konstitutsiyaning nihoyatda xalqchilligini ta'minlagan muhim jihatlar deb qarasaq mubolag'a bo'lmaydi.

Asosiy qonun mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasi, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratgani qayd etilgan. Bugun yurtimizda Bosh qonunimiz asosida yangi



ijtimoiy-siyosiy muhit shakllanayotgani, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo o'ziga xos mexanizmlari hayotga tatbiq qilinayotgani, davlat institutlarining faoliyati samaradorligi oshayotgani, milliy parlamentarizm instituti yanada takomillashayotganini quvonarli holatlardan biridir. Suveren davlat maqomini mustahkamlash, xususan, yangi sinovlar va tahdidlar sharoitida milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash, o'zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan tashqi siyosatni davom ettirish borasidagi ishlar ko'lami yanada kengayayotgani, to'g'risi, bu biz yoshlar uchun yanada katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Bosh qomusimizda tadbirkorlik faoliyati kafolatlarini kuchaytirish, bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun shart-sharoit yaratish, qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash, adolatli soliq tizimini yo'lga qo'yish, monopolistik faoliyatni cheklash orqali tom ma'noda erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun barqaror asos yaratildi. Mulk daxlsizligi va u bilan bog'liq huquqlarning ta'minlanishi davlat tomonidan kafolatlanishi, mulkiy huquqlarni cheklash faqat sud qarori asosida bo'lishi mustahkamlandi. Mamlakatimizda tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlandi. Bu iqtisodiyot barqaror o'sishi, farovon hayotimiz tayanchi hisoblangan tadbirkor va ishbilarmonlarimizning erkin faoliyati uchun mustahkam huquqiy kafolat yaratadi. Demak, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda Oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik berilishi, tanlov asosida davlat hisobidan bepul oliy ma'lumot olinishi, nodavlat ta'lim tashkilotlari qo'llab-quvvatlanishi to'g'risidagi qoidalar yosh avlod hayotini yaxshilash, ularning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, zamonaviy mutaxassisliklarni egallagan holda hayotda o'z o'rnini topishi va shaxsiy rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mamlakatimiz Prezidenti tomonidan keyingi yillarda yurtimizda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy hayotimizning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish bo'yicha strategik maqsadlar o'z ifodasini topgani, Asosiy Qonunimiz davlatimizning yaqin va uzoq istiqboldagi barqaror taraqqiyoti hamda xalqimiz farovonligining mustahkam huquqiy asosi va ishonchli kafolatiga aylangani qayd etib o'tildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini birma-bir ko'zdan kechirar ekanmiz, unda xalqparvar davlat qurish maqsadida kuchli parlament, ixcham va mas'uliyatli hukumat, mustaqil va adolatli sud tizimini barpo etishga alohida e'tibor qaratilganiga guvoh bo'lamiz. Bu esa, mamlakatimizda xalqchil davlat qurish yo'lida amalga oshirayotgan islohotlarimiz mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy zaminga, eng muhimi, xalqimiz irodasi va manfaatlariga tayanishidan dalolatdir.

Konstitutsiyada shaxs-jamiyat va davlat manfaatlari o'rtasidagi ustuvorlik aniq belgilab berildi. Unga ko'ra, inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi. Bu shundan dalolat beradiki, huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalarning oqilona yechimi Bosh qomusimizda o'z aksini topdi. Inson, jamiyat va davlat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha zarur choralar ham Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Bunda alohida bob kiritilib, u bilan xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari ifodalandi. Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda amalga



oshirilayotgan barcha islohotlarning tub zamirida, avvalo, inson manfaatlari turishini ushbu Konstitutsiya va undagi normalar orqali ko'p millatli xalqimiz qalban his qilmoqda, desam aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Konstitutsiyani yangilashdek g'oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o'ylab ish tutilgani ushbu hujjatning pishiq-puxta bo'lishini ta'minlashga xizmat qildi, deb o'ylayman. Ana shu xalqchil, insonparvar, demokratik prinsiplarga yo'g'rilangan Konstitutsiyamizni barcha, avvalo, har bir fuqaroning o'zi yaxshi bilishi, konstitutsion burchini, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy huquqlarini teran anglashi uning qadr-qimmatini yanada oshiradi. Zero, bugun mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar va yangilanishlar jarayoni bir fuqaroning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va savodxonligi yuksak darajada bo'lishini taqozo etadi. Oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri yangi tahrirdagi Konstitutsiyani so'zsiz va to'liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O'zbekiston g'oyasiga hamohang tarzda ro'yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizda chinakam ma'noda "xalq — davlat hokimiyatining birdan-bir manbai" ekanligi o'zining hayotiy ifodasini topdi. Binobarin, unda qonun ijodkorligi faoliyati tom ma'noda yangi bosqichga ko'tarildi. Yana bir muhim jihatni qayd etish joiz, Konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga egaligi, to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishi nazarda tutildi. Buning mohiyati shundaki, mamlakatimiz hududida barcha huquqiy hujjatlar Asosiy Qonunga mos va muvofiq bo'lishini anglatadi. Ayni paytda mamlakatimizning xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi ekanligi qat'iy mustahkamlandi. Bunday konstitutsiyaviy normalar faqatgina eng rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyalarida mavjud. Qonun ijodkorligi borasidagi eng muhim o'zgarishlardan biri - bu shubhasiz Konstitutsiyamizda qonunchilik taklifi instituti kiritilganligida namoyon bo'ladi. Unga binoan, endilikda O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, Oliy Majlis Senati, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili va Markaziy saylov komissiyasi qonunchilikka taklif kiritish imkoniga ega bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz intilayotgan buyuk maqsadni amalga oshirishda qonun ijodkorligi jarayoni muhim o'rin tutadi va bunda yangi tahrirdagi Konstitutsiya dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Men Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasini yoshlar Konstitutsiyasi, deb atagim keladi. Sababi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz yoshlar hayoti va faoliyatining asosiy qismini o'zida mujassam etdi. Binobarin, Bosh qomusimizda Oila, bolalar va yoshlar uchun alohida bob ajratildi. Masalan, 79-moddadagi "davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi" degan norma davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida kiritilishi nafaqat yoshlar



manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun muhimdir. Shu sababli, biz yoshlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni chuqur o'rganishimiz, hayotimiz va faoliyatimiz davomida uni qo'llashni bilishimiz katta ahamiyatga ega.

Biz yoshlarning, balki barcha yurtdoshlarimizning Prezident Shavkat Mirziyoyevga bo'lgan yuksak ishonchi bejiz emas. Bu tog'dek ulug'vor ishonch zamirida prezidentimizning so'nggi yillarda mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish hamda Uchinchi Renessans poydevorini tiklash yo'lida amalga oshirayotgan ezgu amallari bilan xalqimiz qalbidan mustahkam joy egallaganidek, barchamiz g'urur, faxr va iftixor tuyg'ularini his qilmoqdamiz. Shuningdek, ta'lim sohasiga ham alohida e'tibor berib, kundan-kunga ta'lim tizimini rivojlantirish borasida yangicha va xalqaro yondashuvlar asosida islohotlarni amalga oshirmoqdalar. Bu kelajakdagi ustuvorlik va uchinchi renessans vakillarini yetishib chiqishida ham muhim ahamiyatga ega desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Jadal sur'atlarda rivojlanayotgan dunyoda faqat zamon bilan hamnafas odimlayotgan, jamiyat va davlatni modernizatsiya qilish uchun zarur islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlarga raqobatbardosh bo'la oladi. Bu oddiy va asl haqiqat, o'z navbatida, Yangi O'zbekiston uchun yangi siyosat va mamlakat taraqqiyoti uchun uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqishni hayotiy zaruratga aylantirdi. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi kundagi islohotlar ham aynan davlatimizning boshqa davlatlar bilan birga rivojlanishiga, barcha sohada raqobat qila olishiga zamin yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, konstitutsiya, bir davlatning bosh qonuni hisoblanadi va xalqchilik prinsiplariga asoslangan. Uning asosiy maqsadi, inson huquqlarini himoya qilish, demokratik tizimni ta'minlash va davlat organlarining faoliyatini tartibga solishdir. Bu qonun, mamlakatning barqaror taraqqiyotini va farovon hayotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, biz yoshlar uchun ham huquq va burchlarimiz, erkinliklarimiz konstitutsiyamizda nazarda tutilganidek, belgilab qo'yildi. Shu bilan bir qatorda bizga keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Chunki, davlatimiz barcha davlatlar bilan xalqaro munosabatlarda ham ancha yetakchi hisoblanadi. Mana shunday tinch va obod yurtda yashayotganimizdan, yurtboshimizning xalqchilligi bizga doim kuch va shijoat beradi. Bundan keyin esa biz yoshlar doimo olg'a qadamlar bilan yurtimizning bayrog'ini ko'klarga ko'tarishga, unga sadoqat bilan xizmat qilishga yanada kuch-g'ayrat topamiz.

References:

1. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/15227>
2. <https://qarshidu.uz/oz/news/386-konstitutsiya-xalqchil-davlat-barqaror-taraqqiyot-va-farovon-hayot-asosi>
3. <https://parliament.gov.uz/news/xalqchil-davlat-barqaror-taraqqiyot-va-farovon-hayot-asosi#!>
4. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m11865>
5. <https://www.uzreport.news/society/inson-qadri-biz-uchun-qandaydir-mavhum-balandparvoz-tushuncha-emas-prezident>



6. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li "MAKTAB O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI ZO'RAVONLIK BULLING VA UNGA QARSHI KURASHISH YO'LLARI". «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» Выпуск №22 (том 5) (январь, 2022). 874-875
7. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li "TA'LIM JARAYONINING PSIXOLOGIK MAZMUNI". «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №24 (том 5) (март, 2022).460-465b.
8. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li "TURISTIK SAYOHATLARNING INSON SOG'LIG'I VA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI " «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №24 (том 5) (март, 2022).466-468b.
9. Samarova Shohista Rabidjanovna, Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li "IJODKOR SHAXSLARNING SHAKLLANISHIDA XOTIRA JARAYONINI O'RNI " "HOZIRGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARINI TASHKIL QILISHNING ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR" (2022. 28-29. 04) 640-650b.
10. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li. "YANGI O'ZBEKISTON MA'RIFATLI JAMIYATNI YARATISHDA YOSHLARNING O'RNI VA PSIXOLOGIYASINING SHAKLLANISHI". "GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)" Vol. 10, Issue 6, June (2022) 523-527b.
<https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2198>
11. Toshpulatov Abdulaziz Kuvondik o'g'li, Karomatov Akbar Abrammat o'g'lu, "The Development of Moral Qualities in Youth Psychology of the Past Days" Zien Journal of Social Sciences and Humanities (21-06-2022) 62-63b <https://zienjournals.com>
12. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, "YOSHLARNING DUNYOQARASHI VA XULQ-ATVORIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY PSIXOLOGIK OMILLAR" SCIENCE AND INNOVATION (2022 № 3) 854-857b <https://doi.org/10.5281/zenodo.6811688>
13. Fayziyev I. Sh. & Toshpo'latov A. (2022) O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQILLIKDAN OLDINGI VA KEYING SIYOSIYHAYOTI. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development Volume-10, Nov., 2022 31-34b
14. Toshpo'latov, A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170-178.
15. Temirov, J. ., & Toshpo'latov , A. (2023). TYUTOR PEDAGOGIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Наука и инновация, 1(28), 29-32.
16. Umarova , G. ., & Toshpo'latov , A. . (2024). Klaster tanqidiy fikrlash texnologiyasi texnikasi sifatida. Центральноеазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(10), 49-55.
17. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXS AGRESSIYA. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(4), 30-31.
18. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). IJTIMOY TARMOQLARIDA "OMMAVIY MADANIYATGA" QARSHI KURASHISHNING DIDAKTIK VOSITALARI. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(4), 27-29.